



Xurshida KADIROVA,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU dotsenti, f.f.n
E-mail: godirova@navoiy-uni.uz

ToshDO'TAU professori, fil.fan.dok. S.Muxamedova taqrizi asosida

FACTORS DETERMINING COMPARISON AND TRANSLATION OF X-FEM LANGUAGES OF DIFFERENT SYSTEMS

Annotation

The comparative study and translation of x-feme languages of different constructions is integrative in nature. Despite his extensive scientific writings, the end point remains an invisible direction. The article analyzes the scope of application of x-fem units, their coverage among peoples with a mental cultural environment, as well as the scope of application of x-fem. Similar studies are compared to a number of world languages, and typological differences are often noticeable. The desire of representatives of small languages to express their national and cultural characteristics in the arena of world languages through their literature encourages them to carry out the practice of comparison and translation. The article was created as a result of typological, linguocultural scientific research.

Key words: comparative typology, comparative linguistics, translation, X-theme, languages of different systems.

ФАКТОРЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ СРАВНЕНИЕ И ПЕРЕВОД ИКС-ФЕМ ЯЗЫКОВ РАЗНЫХ СИСТЕМ

Аннотация

Сопоставительное изучение и перевод икс-фем языков разной конструкции носит интегративный характер. Несмотря на его обширные научные труды, конечная точка остается невидимым направлением. В статье анализируется сфера применения икс-фемических единиц, их охват у народов с ментальной культурной средой, а также сфера применения икс-фем. Подобные исследования сравниваются с рядом мировых языков, и зачастую заметны типологические различия. Стремление представителей малых языков выразить свои национально-культурные особенности на арене мировых языков через свою литературу побуждает их осуществлять практику сравнения и перевода. Статья создана в результате типологического, лингвокультурологического научного исследования.

Ключевые слова: сопоставительная типология, сравнительная лингвистика, перевод, икс-фема, языки разных систем.

TURLI TIZIMDAGI TILLARNING IKS-FEMALAR QIYOSI VA TARJIMASINI BELGILOVCHI OMILLAR

Аннотация

Turli qurilishdagi tillarning iks-femalarini qiyosiy o'rganish va tarjima qilish integratsion xarakterga ega. Uning keng ilmiy quloqch yozgani bilan so'nggi nuqtasi ko'rinmaydigan yo'nalish bo'lib qolaveradi. Maqolada iks-femik birliklarning ko'lami, mental madaniy muhitga ega millatlarda ularning qamrovi, iks-femalarning qo'llanilish doirasi tahlilga tortilgan. Bunday izlanishlar sanoqli dunyo tillari bilan muqoyasa qilinib, ko'pincha tipologik farqlar ko'zga tashlanadi. Kichik tillar vakillarining o'z milliy, madaniy xususiyatlarini adabiyotlari orqali jahon tillari arenasida namoyon qilish istagi ularni qiyos etish, tarjima amaliyotini amalga oshirishga undaydi. Maqola tipologik, lingvokulturologik ilmiy izlanishlar natijasida dunyoga keldi.

Kalit so'zlar: qiyosiy tipologiya, chog'ishtirma tilshunoslik, tarjima, iks-fema, turli tizimdagi tillar.

Kirish. Tillarning tipologik jihatlari, grammatik aspektlari, leksik zahirasi asos tilning semantik-struktur xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishiga qaramay, globallashuv jarayonida muayyan bir tilning ayrim xususiyati ikkinchi tilning shu kabi xususiyati bilan qorishib ketishini kuzatish ham mumkin. Bu esa tipologik tasniflarda anglashilmovchiliklarga, ayniqsa, iks-femalarni qiyoslash va tarjima qilishda turli xil yondashuvlarga olib keladi. Bunda geneologik, morfologik, sintaktik va lingvokulturologik omillar muhim rol o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 2013-yilda Chjan Chan "Эвфемизация в русском и китайском языках: лингвокультурологический и лингвопрагматический аспекты" nomli avtoreferatini e'lon qildi. Ma'lumki, xitoy tili morfologik jihatdan amorf tillar sirasiga kiradi. Rus tili esa flektiv tillarning sintetik tillar guruhiga mansub. Shu ma'noda, mazkur ishda ko'rsatilganidek, "geneologik va tipologik jihatdan turli til oilasi va sinflariga kiruvchi rus va xitoy tillari evfemizatsiyasi umumiy ko'rinishlariga ega; farqlar faqat derivatsion vositalarida ko'rinadi (rus tilida xitoy tiliga xos bo'lmagan affikslar faol qo'llaniladi) va xitoy tili stilistik vositalarda ustunlik qiladi" [1]. Xitoy va o'zbek tillaridagi

evfemizmlarning lingvomadaniy tadqiqi [2] ham amalga oshirilgan bo'lib, bunda ham **morfologik omil** yuzaga chiqadi. O'zbek tili aglyutinativ tillar, xitoy tili amorf tillar sirasiga kirishi, uning yolg'iz o'zakdan iboratligi, turlanish, tuslanish xususiyatlari yo'qligi va amorf tilning yorqin namunasi xitoy tili ekanligi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, unda zamon tushunchasi ham yo'q, ular voqeaning vaqtini anglatish uchun mustaqil so'zlar va payt hollari ishlatadilar [3]. Bu tilda so'z tartibi muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq bu ishda tilning qurilishi emas, ko'proq leksik-frazeologik, semantik jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Tarjima qilinishida qiyinchiliklarga olib keladigan hodisalardan biri – emfazadir. Tilda u ham grammatik, ham leksik vosita, ba'zan esa ikkalasi tomonidan yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Emfazalarni ifodalash vositalarining xilmaxilligi va uning o'ziga xos xususiyati ko'pincha matnni va uning tarjimasini tushunishni qiyinlashtiradi [4]. Morfologik jihatdan birbiriga yaqin tillarning o'zaro tarjimasini ushbu murakkabliklarni muayyan miqdorda kamaytiradi. Masalan, aglyutinativ tilga millionlab odamlar foydalanadigan tillarning uzun ro'yxati kiradi: turkiy tillar (turk, qirg'iz, ozarbayjon, tatar va boshqalar), koreys, yapon, gruzin, fin-

ugor tillari (chuvash, fin, venger va boshqalar), ba'zi Afrika va sun'iy tillar shular jumlasidan. Gap shundaki, morfologik jihatdan farqli bo'lgan tillar sintaktik jihatdan bir guruhga kirishi (masalan, o'zbek: morfologik – agglyutinatv, sintaktik – nominativ; rus: morfologik – flektiv, sintaktik – nominativ), aynan, iks-femalarni o'z til boyligi bilan imkon qadar yetkazib bera olish moyilligini yaratib beradi. Lekin rus tilini sof flektiv deb ham bo'lmaydi. Uning agglyutinatvlik xususiyati turli o'zlashmalar, adabiy almashinuvlar, madaniy qorishuvlar oqibatida shakllanib bo'lgan. Xuddi shunday ingliz tilining ham nominativ til (ega-kesim munosabati, vositali-vositasiz to'ldiruvchilar) bo'lgani bilan ergotivlik (2 ta kelishik) xususiyati ham yo'q emas. Bunday holat iks-femalar tarjimasida **grammatik omillarga** ham tayanishni taqozo qiladi.

Tadqiq metodologiyasi. Iks-femalar qiyosi aksariyat xitoy, rus, ingliz, nemis va ispan tillararo tekshirilishi ushbu rivojlangan madaniyatlararo muloqot jarayonini osonlashtirish, badiiy asarlardagi idrok etilishi muhim bo'lgan jihatlarining muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlash bilan bog'liq. Bu borada tillar oilasining **sintaktik** xususiyatlari ham muhim **omil** hisoblanadi. Masalan, hind-yevropa, semit, dravidiy, fin, turkiy, mo'g'ul, tay, yapon, koreys va xitoy tillari sintaktik jihatdan nominativ tillarga mansub ekanligi qiyosiy tipologik izlanish obyekti bo'lish uchun qulaylik yaratadi. Shuningdek, bunday (dunyo tillarida eng keng tarqalgan) tillar tuzilishi kesimning ma'nosi va shakli qanday bo'lishidan qat'i nazar eganing bir xil shakllanishi bilan xarakterlanadi. Nominativ tuzilishga ega tillarning kesimi, odatda, ega bilan moslashadi. Bu tillar tipida gaplar ega (harakat subyekti) bilan to'ldiruvchi (harakat obyekti)ni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga asoslanadi. Nominativ tillarda o'timli va o'timsiz fe'llar, ot so'z turkumining bosh va tushum kelishiklari, vositasiz va vositali to'ldiruvchilar ajratiladi. Fe'llarning tuzilishida turli obyektiv va subyektiv affiksardan foydalaniladi.

Demak, xitoy tili emfazalarining o'zbek yoki rus tili emfazalari bilan o'xshash bo'lishi va uni qiyosiy tipologik o'rganilishi uchun lisoniy materiallar yetarlicha, deb xulosa qilish mumkin. Ammo bugungi kunda nominativlik xususiyat absolyut hisoblanmagan tillar ham mavjud bo'lib, ergotiv tillik elementlari ko'zga tashlanadigan ingliz, arab, fors tillari iks-femalarining tipologik o'rganilishi ilmiy maydonda lingvistik imkoniyatlarni kashf etmoqda. M.M.Hakimovanning “Лексико-сравнительный анализ эвфемизмов в таджикском и английском языках” [5] nomli tadqiqi tojik va ingliz tillarining ergotivlik xususiyati bois qulay bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Disfemizm ingliz va ispan tillarining ham qiyosiy tahlil obyekti sifatida faol birlik hisoblanadi. Bunda ham siyosiy diskurs doirasida ekanligi ahamiyatga molik. [6] Arab tilida esa ko'proq tabulashgan evfemizmlar mavzusi ostida bo'lishini **lingvokulturologik omil** bilan belgilash mumkin. Zero, evfemizm ijtimoiy-madaniy, lingvistik hodisa sifatida dunyoning ko'plab tillarida o'z aksini topadi. Arablar esa buni nutq odobining eng dolzarb uslubiy usullaridan biri deb bilishadi. Qadim zamonlardan beri arab xalqi biron bir qo'pol yoki nomaqbul so'zni xushmuomalalik va odob bilan ifodalash uchun ushbu lingvistik usulga murojaat qilgan [7].

Lingvokulturologik yondashuv gender o'ziga xosliklarga ham ega. U ham lingvokulturologik omilning bir uzvi hisoblanib turli tizimdagi tillarning iks-femalarida mental xususiyat kasb etadi. Shuni ta'kidlash joizki, sharq xalqlarida evfemizmlardan foydalanishning katta qismi ayollarga nisbatan bo'lib, Bay Sexunning so'zlariga ko'ra, ayollar uchun nafaqat ularning jamiyatga mansubligi, balki e'tirof etilishi, qo'llab-quvvatlanishi ham muhimdir. Vaholangki, nutqda ayollar ham hech kimdan qolishmay hamkorlik taktikasi deb nom olgan yoqimli uslubdan foydalangan holda munosabatlar tizimini o'rnatishga intiladilar. [8] Ayniqsa, Xitoy xalqi uchun

odamning yoshi Yevropa yoki Amerika til madaniyatidagi kabi nozik emasligini va ko'p hollarda odamning keksaligi haqidagi gaplar evfemik niqobga muhtoj emasligini Chjan Chan ham o'z ishida ta'kidlab o'tadi. Biroq so'nggi yillarda Xitoy ayollari ham “qari” deb atalishini xohlamaydigan bo'lib qolganligini aytadi. “Ehtimol, Yevropa va Amerika madaniyatining ta'siri bunday evfemizmlarning paydo bo'lishiga ta'sir qilgan” [9], deydi u.

Iks-femalarning tarjimasida bilan bog'liq qilingan ishlarning aksariyatida, asosan, lingvokulturologik omilning bir tarmog'i bo'lgan rasmiy uslubni boshqa tilda yetkazib berish muammosi ustunlik qiladi hamda tez va keng tarqaluvchi mavzu hisoblangan siyosiy diskurs tahlilga tutilganligining guvohi bo'lamiz. Bizningcha ham, muntazam e'tibor qaratish lozim bo'lgan soha bu publitsistika hisoblanadi. Bunda siyosiy maqsadlar yotadi. Demak, tarjimani belgilovchi omillardan eng muhimi **uslub tanlash omili** hisoblanadi. A.V.Moreva publitsistik materiallar evfemizatsiyasi bilan shug'ullanar ekan, u ham haqli e'tiroz bildirgan: “zamonaviy matbuot o'zining barcha salbiy yangiliklari va nobop mavzulari bilan turli xil evfemik birliklarga to'lib toshgan, ularni tarjimada e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi.” [10] Zero, ular har qanday faoliyatni qamrab olgan holda idrok etuvchi ongiga muayyan ta'sir o'tkazishga qodir. Tarjimada esa ikki millatning yo o'zaro ijobiy munosabati yo salbiy munosabatini uyg'otish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu borada, A.B.Goncharova “evfemistik birliklarni o'girishda qiyinchiliklar tug'iladi, o'z navbatida, lingvomadaniy fon va qo'shimcha ma'lumotlarni hisobga olmaslikning iloji yo'q” [11], deydi.

Demak, turli matnlardagi bir xil leksemalar turli semantik ma'nolarni yuklagani bois, iks-femizmlarni xolis tarjima qilish yo'lidagi asosiy to'siq – bu turli tizimdagi tillarning emfazalari hisoblanadi. Shuning uchun, leksemalarni o'girishda shu leksemaga xos bo'lgan konnotativ va denotativ semalarning matndagi o'rni va matn uslubiga muayyan lingvomadaniy qo'shimchalar qo'shish, izohlar keltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillardagi tadqiqotlarda siyosiy boadablik darajasini ifodalovchi “politkorrekt evfemizm” termini tez-tez ko'zga tashlanadi. “Politkorrekt evfemizmlarni tarjima qilish usullari alohida qiziqish uyg'otadi, chunki ularni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar nafaqat turli tillar, balki kommunikativ madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan turli madaniyatlar bilan ham bog'liq. Ikki tildagi nutq birliklari bir-biriga to'g'ri kelmasa yoki umuman yo'q bo'lsa tarjima qilingan matn o'sha ohangda idrok etilishi, o'shandaq siyosiy xolislikni ifodalashi uchun tanlash kerak bo'lgan leksik birliklar yuzasidan murakkabliklar yuzaga keladi” [12]. O.A.Zinina o'z ishida sifatli matbuotga xos bo'lgan evfemizmlarning pragmatik salohiyati, shuningdek, ularni rus tiliga o'girishning usullarini tahlil qilar ekan, transleteratsiya usuli, tavsifiy tarjima, kalkalash, taqribiy (yaqinlashgan) tarjima yo'llarini taklif etadi. Bu esa **pragmatik omillar** bilan bog'liqlikni ko'rsatadi.

Tahlil natijalari. Ergotiv tillar tipida gaplar subyekti bilan obyekt ziddiyatiga asoslanmaydi. Ular agentiv (harakatni qo'zg'atuvchi) va faktativ (harakatni boshqaruvchi)lar asosida quriladi. Bu tipdagi tillarda ergotiv va absolyut kelishiklar farqlanadi. Ergotiv kelishik shaklidagi ot so'z turkumi o'timli harakatning subyektidan tashqari bilvosita obyektini (ko'pincha harakatning vositasi)ni ham anglatadi. Ergotiv tillarga bask, abxaz-adige, nax-dog'iston, ko'plab papuan, avstraliya, chukot-kamchatka, eskimos-aleut va boshqa hind tillari kiradi [3]. Ko'rinadiki, **geneologik omillar** iks-femalarning qiyosiy tahlilida ustunlik qiladi. Zero, geneologik jihatdan oilasi bir bo'lgan tillarning emfazalari qiyoslanishga moyilligi bilan ham ahamiyatli.

Emfatik konstruksiyalarni muayyan leksik birliklarga emotsional ifoda berish uchun qo'llaniladigan leksik; grammatik va leksik-grammatik vositalardan shu maqsadda foydalaniladigan grammatik turlarga ajratish mumkin [13] bo'lgan bir biriga yaqin tillar tahlilga oson tortilishi ehtimoldan holi emas. Xususan, A.S.Stasyuk nemis va shved tillarining disfemik birliklari qiyosiy tahliliga bag'ishlangan maqolasida buni yaqqol kuzatish mumkin [14]. Bunda til vakillarining mental xususiyati o'laroq evfemizm emas, disfemik emfazasi yuqoriligi ko'zga tashlanadi. Umuman, nemis tilining bo'yoqdorligi, ayniqsa, ijobiy bo'yoqdorligi boshqa tillarga nisbatan kam ekanligi tilshunos va tarjimonlarga ma'lum. Shuning uchun, odatda bu tillar bilan bog'liq ishlarda iks-femalarning aynan shu turi tez-tez ko'zga tashlanadi va aksariyati siyosiy diskursga oid bo'ladi [15].

Yaqin tarixda sodir bo'lgan pandemiya oqibatida tibbiyot sohasidagi iks-femalarning ifoda turlari ilmiy tadqiqot manbaiga aylanib, sohada yangi emfazalar paydo bo'ldi va sohadagi iks-femizmning qo'llanilish doirasi leksikologiyadan o'rin olishiga sabab bo'ldi. Bu tilshunoslikda soha bilan bog'liq iks-femalarni o'rganish tarmog'ini boyitdi. Bunga qadar ijtimoiy soha, siyosiy soha emfazalari chuqur o'rganilgan, tarjima qilish muammolari muayyan darajada yechilgan bo'lsa, endi turli qurilishdagi tillar uchun dunyo diqqat-e'tiboridagi tibbiy soha axborotlarini yetkazish yoki qabul qilish muammosi paydo bo'ldi. Endi siyosiy manfaatlar emas, balki sohaviy muammolarni to'g'ri talqin qilish, xolislik darajasini saqlab qolish, tabulashgan tushunchalarni evfemizatsiyalashtirish, disfemik kayfiyat uyg'otuvchi ortofemik birliklarni neytrallashtirish masalasi ko'ndalang turadi. Shu tariqa, iks-femalar tarjimasini belgilovchi yangi omil – sohada qo'llaniladigan iks-femalarni to'g'ri anglash omili yuzaga keladi. Zero, siyosiy-ijtimoiy diskursda lingvomadaniy nizolarning oldini olish maqsadi, iqtisodiy sohada talab va taklif munosabatlarini mustahkamlash manfaati, madaniy-ma'naviy sohada millat dovrug'ini targ'ib qilish istagi, tibbiy sohada xolis va sifatli axborot qabul qilish, millat salomatligi xususida qayg'urish ishtiyoqi tarjimonlar ishining bosh maqsadi bo'lmog'i lozim. O'z davrida N.M.Berdova ham palliativ diskurs haqida uning nutqda institutsional tur ekanligini, bemorni to'liq davolashni kafolatlamasligini aytgan edi [16]. Palliativ diskursning dolzarb muammolari: og'riq, harakatning cheklanishi, nochorlikni anglash, o'z-o'ziga xizmat qila olmasligi, aybdorlik hissi, boshqalarga yuk bo'lish hissi, yaqinlashib kelayotgan o'lim haqidagi tushunchalar shular jumlasidan.

Shuningdek, zamonaviy jamiyatdagi dinamik ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasida iqtisodiyot, biznes va moliya sektoriga tegishli evfemizmlarning mavzuiy guruhi paydo bo'lib, ko'plab zamonaviy tillarda samarali bitimlar imzolashiga yordam berishini ham qayd qilish mumkin: "inglizlar va amerikaliklar o'z nutqlarida to'g'ridan-to'g'ri *money* (деньги) nomi o'rniga *resources* (ресурс), *funds* (фонды) yoki *finances* (финансы) evfemik nomlarini ishlatishni afzal ko'radilar. Pul bilan professional shug'ullanishi kerak bo'lganlar ko'pincha nomaqbul, insofsiz bitimlarning ortofemik nomlarini yumshatuvchi va pardalovchi evfemistik metaforalarga murojaat qilish zarurati bilan duch kelishadi. Hisoblardagi raqamlarda qalloblik qilish holatini *adjust figures* (скорректировать цифры) yoki *massage figures* (массировать цифры) nomi ostida pardalashi mumkin" [17]. Bu evfemizmlar shu sohada evfemik emfaza bo'lib xizmat qiladi. Demak, iks-femalarning sohadagi ifodasi tarjimada buzilmasligi kerak. Masalan, *massage figures* (массировать цифры) birligini o'zbek tilida hech qanaqasiga o'g'irib bo'lmasiligini tarjimon bilish lozim.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, turli tizimdagi tillarning qiyosini belgilovchi omillar tillarni bir-biriga yaqinlashtirib qo'yishi, evfemik birliklarning qayta evfemik o'ramga muhtoj bo'lib qolishi, disfemik birliklar ortofemik tusga kirishi, ortofemik birliklar evfemik yoki disfemik xususiyat berishini ta'minlaydi. Til qurilishidagi muhim omillar qiyosiy o'rganishning omillari bo'lib xizmat qila oladi. Buni faqat ongli ravishda to'g'ri tarjima qilish bilan ijobiy samaraga yetkazish lozim bo'ladi. Turli tizimdagi tillarning iks-femizmlari qiyosi va tarjimasini belgilovchi omillarning hammasi bir maqsadga – dunyoni to'g'ri anglashga qaratilgan. Xolislik, hamdo'stlik, insonparvarlik urug'lari tili va dilidan qat'i nazar hamma xalqda ham oliy tarbiya va xislat hisoblanib kelgan. Uning dildan tilgan qanday ko'chishigina xususiy, idrok etilish esa farqli. Idrok etilgan normalar xususiy, uni ong ostida talqin etish ham turlicha va o'ziga xos bo'ladi. Demak, manbaa tilidagi milliy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, lisoniy, tibbiy, hayotiy, maishiy normalarini tarjima tilida to'g'ri talqin etish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilishi muhim. Har bir til ilmi o'z iks-fememik ifodasini turli yondashuvlar bilan tadqiq etish, boshqa qurilishdagi til ilmiga mos bo'lgan varintini taklif etish maslasini ham ko'rishi kerak. Shundaygina, mazkur til orqali xalq, millat hususida boshqa til vakili ongida to'g'ri tasavvur hosil qilish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Чжан Чань. Эвфемизация в русском и китайском языках: лингвокультурологический и лингвистический аспект: Автореф. дис... канд. фил. наук. Издательство ВГСПУ "Перемена" Типография Издательства ВГСПУ "Перемена", Волгоград, пр. им. В.И.Ленина, 27.
2. Шамсиева Ш.К. Хитой ва ўзбек тилларидаги маиший эвфемизмларнинг лингвотадқиқи. Фил. фан. бўйича фал. док. дис. автореф. – Тошкент, 2020.
3. Qodirova X. O'zbek va rus tillari sintaksisining tipologiyasi. Monografiya. – Toshkent: "AKTIV PRINT", 2021. – 128 b.
4. Левицкая Т., Фитерман А. Тетради переводчика (Вып. 9). – М.: Международные отношения, 1972. – 115 с.
5. Хакимова М.М. Лексико-сравнительный анализ эвфемизмов в таджикском и английском языках. 10.02.20. Дис.канд.фил.наук, - Душанбе, 2016. – 160 с.
6. Анисимова А.А. Дисфемизмы в современном испанском языке. // Инновационные научные исследования. XXII международная научно-практическая конференция | МЦНС «НАУКА И ПРОСВЕЩЕНИЕ», 89-95.
7. Хади Н.Дж., Джасим М.А. 2016. Об эвфемизме и табуированном эвфемизме в арабском языке. // https://www.researchgate.net/publication/337465074_Ob_evfemize_i_tabuirovannom_evfemizme_v_arabskom_azyke_On_Euphemism_Taboo_Euphemism_in_Arabic
8. 白解红, 性别语言文化与语用研究, 长沙: 湖南教育出版社, 2000. С. 114–222.
9. Чжан Чань. Гендерные особенности эвфемизации как факторы реализации вежливости в языке китайской женской прессы. // ИЗВЕСТИЯ ВГПУ, 2012.
10. Морева А.В., Грекова О.М. Особенности и трудности перевода эвфемизмов (на материале новостных статей BBC) // Научный результат. Вопросы теоретической и прикладной лингвистики. – Т.4, №4, 2018.
11. Гончарова К.А., Гриднева С.В. Трудности перевода эвфемизмов в контексте СМИ. // https://docs.google.com/document/d/1FCoGJHfJ4LxZF3JYtYKFPy1BbRx_RpN4UARQBknaQ8Lg/edit#

12. Зинини О.А. Прагматический аспект эвфемизмов и способы их перевода.// <https://www.tsutmb.ru/nauka/internet-konferencii/2016/yazik-kultura-prof-comm/3/zinina.pdf>
13. Сербиновская А.М. Английский язык для турбизнеса и сервиса: учебник / А.М. Сербиновская. – 3-е изд. – М.: Дашков и К, 2009. – 428 с.
14. Стасюк А.С. Прагматические характеристики дисфемизмов в парламентском дискурсе ФРГ и Швеции. // Риторика. Лингвистика. № 11. – Смоленск: Изд-во СмолГУ, 2015. – С. 300-305.
15. Бровченко Е.А. Функционально-прагматическая роль дисфемизмов в немецком политическом дискурсе. // «Научно-практический электронный журнал Аллея Науки» №6(22) 2018. Alleyscience.ru
16. Бердова Н. М. Эвфемизмы в современном немецком языке. К.: Просвита, 1981. 19 с.
17. Economic translation: учеб. пособие по экон. переводу / И.Н. Никитина, Г.В. Глухов, Т.В. Громова; под общ. ред. И.Н. Никитиной. – Самара: Изд-во Самар. гос. экон. ун-та, 2017. – 192 с. ISBN 978-594622-812-1
18. Кадирова Х. (2024). Дисфемизм в узбекском и русском языках (сравнительный анализ). Новости журнала УзМУ, 1 (1.1.1.), 273-276. Получено с <https://journalsnuu.uz/index.php/1/article/view/781>